

Oliy ta'limning 220000-gumanitar
fanlar sohasining M 220505 Sharq
filologiyasi mutahassisligi uchun
«Arab tili» fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Eron - afg'on filologiyasi talabalari uchun QSHT «Arab tili» fani dasturi.

Ushbu dastur Tosh DShI filologiya fakul'teti eron-afg'on filologiyasi talabalari uchun g'o'shimcha Sharq Tili bo'lgan «Arab tili» fani bo'yicha tuzildi. U o'quv rejasiga muvofiq 2,5 yilga 2-3 va 4 kursning 1 yarim yilligigacha bo'lgan davrga mo'ljallangan.

Bunda eronshunos filologlarning, ular shu o'quv kursini tugatganlarida arab tili asoslarini, arab tili leksikasining morfologik tushilishini bilib olishlari ko'zda tutiladi.

Arab tili fors tilidan har jihatdan farq qiladi. Bu farq uning fonetikasi, iboralari arab tili grammatik qurilishi arab tili leksikasi tuzilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fors tilida arab tili leksikasidan o'zlashtirilgan so'zlar keng qo'llaniladi. Shuning uchun eronshunos talabalar arab tilini o'qish jarayonida arab tili leksikasining flektiv harakteri, so'zlarning tuzulishi forscha-ruscha lug'atdan anchagina farq bo'lgan arabcha-ruscha, arabcha-o'zbekcha lug'atlardan foydalana olish ko'nikmalariga alohida e'tibor qilishlari zarur bo'ladi. Arabcha-ruscha, arabcha-o'zbekcha lug'atlar alfavit tartibida o'zak undoshlariga qarab tuzilgan bo'ladi. Ular kurs davomida arab tili sintaksisi bo'limi bo'yicha faqat sodda gaplar, sodda ismiy va fe'liy gaplar va so'roq gaplarnigina o'zlashtiradilar. Bunda murakkab gaplar sintaksisi o'qitilmaydi.

«Arab tili» kursi eron-afg'on bo'limi bakalavr darajasidagi talabalari uchun jami 87 haftada 348 soatga mo'ljallangan. Shundan tahminan 148 soati nazariya va 200 soat esa amaliyotga tadbiiq etilishi ko'zda tutiladi.

O'quv soatlari semestrlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

Kurslar	2- kurs		3- kurs		4-kurs
simestrlar	3 semestr	4 semestr	5 semestr	6 semestr	7 semestr
haftalar	19 hafta	19 hafta	19 hafta	19 hafta	11 hafta
haftalik soatlar	4 soat	4 soat	4 soat	4 soat	4 soat
umum soatlar	76 soat	76 soat	76 soat	76 soat	44 soat

Jami: 87 hafta

Kursning nazariy qismida talabalar arab tilining grammatik tuzulishi asoslari morfologiya va morfologik soʻz tuzulishini jihatlarini oʻrgatiladi. Amaliy mashgʻulotlarda esa oʻrganilgan grammatik qoidalar turli hil mashqlar bajarish orqali mustahkamlanadi.

Oʻquv kursi materiallari quyidagilarni oʻz ichiga oladi: arab alifbosining fors tili alifbosidan farqli jihatlarini, arab tili fonetikasining farqi, qisqa va uzun unlilarni ifodalanishi, jins, son, kelishik kategoriyalarining farqi, aniqlik va noaniqlik kategoriyalari, birikma olmoshlari, birikma olmoshlarining ismlarga feʼllarga va predloglarga qoʻshilib kelishi va ularning vazifalari, feʼl, feʼl boblari, masdarlar, aniq va majhul darajadagi sifatdashlar, 1-chi bob feʼlining oʻtgan va hozirgi kelasi zamonda tuslanishi, ismiy va feʼliy jummalarning yasalishi, soʻroq gaplar vaqt va joy nomlar, qurol-aslaha, kasb-kor va boshqa ismlarning morfologik shakllari, soʻz yasovchi va boshqa omillar va h.k. Notoʻgʻri feʼllar haqida umumiy maʼlumot, notoʻgʻri feʼllarning hosila boblari, masdar va sifatdashlari, ikkilangan feʼllar, hamzalik feʼllar, boʻsh va noqis feʼllar, toʻgʻriga oʻhshash feʼllar.

Kurs davomida talabalar fors tilida mavjud boʻlgan arab tili leksikasini ajrata olishlari ularning morfologik formalarni aniqlay olishlari va arab tilidan oʻzbek tiliga tarjima qila olishlari kerak boʻladi.

«Arab tili» fanining kurslar va semestrlar boʻicha taqsimoti: **2-kurs 3 semestr 76 soat.**

Arab alifbosi, uning fors tili alifbosidan farqi /28 undosh/. oʻamza undosh / /. Undosh harflar va ularning yozuvda ifodalanishi. oʻarakatlar: fatha / /, kasra / /, damma / /, sukun / /, tashdid / /. Soʻz turkumlari. Sodda gap. Sodda ismiy va feʼliy gap. Soʻroq gap. Ismlarning grammatik jinsi. Aniqlik va noaniqlik kategoriyalari. Son. Ikkilik. Koʻplik. Muzakkar va muannas ismlardan koʻplik yasash.

/ va boshqa morfologik shakllardan sinik kupliklar yasash va kushimchalari bilan muzakkar va muannas ismlardan koʻplik yasash. Ismlarning kelishiklarda turlanishi. Kishilik olmoshlari, koʻrsatish olmoshlari. Ajratuvchi olmosh, aniqlovchi, nisbiy otlar. Aniqlovchi. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchi. Koʻmakchili ot kesim.

2 kurs 4 semestr 76 soat.

Predloglar. Haqiqiy va ravish predloglari. feʼlining oʻtgan zamonda tuslanishi. Moslashish qonunlari. Izofa birikmasi.

olmoshi. Inkor fe'li. fe'li.

Birikma olmoshlari. Birikma olmoshlarining ismlarga, fe'llarga va predloglarga qo'shiliyu kelishi va ularning gapdagi vazifalari. Ikki kelishikli otlar. Kelishikda turlanmaydigan ismlar.

Fe'l. 1 bob fe'li. O'tgan zamon fe'li. Fe'liy jumla. To'ldiruvchi. Vositali va vositasiz to'ldiruvchi.

3 kurs 5 semestr 76 soat.

o'ozirgi kelasi zamon fe'li. Gapning uyushiq bo'laklari. o'osila boblari haqida umumiy ma'lumot. o'osila boblarining ma'nolari haqida umumiy tushuncha. 2-5 bob fe'llari. Bosh bo'laklari uyushib kelgan fe'liy jumlar. Hol. Hol haqida umumiy ma'lumot. Payt, o'rin, daraja, sabab va maqsad holi. Miqdor holi. Holat holi. 4 bob fe'li va uning ma'no-lari. Fe'l mayllari. Shart va buyruq mayli. Murojaat. 3 bob fe'li va uning ma'nolari. 6 bob fe'li va uning ma'nolari. Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar. 10-9 bob fe'llari va ularning ma'nolari. Izohlovchi. Uning turlari. Mahsus izohlovchi. 4 o'zakli fe'llar. Ularning hosila boblari. o'osila boblardan buyruq mayli yasash. 7-8 bob fe'llar. «Bo'lmoq» va «Bo'lib qolmoq» fe'llari. 10-9 bob fe'llari.

3-kurs 6 semestr 76 soat.

Masdar haqida umumiy ma'lumot. 1 bob masdar formalari. 4 o'zakli fe'llarning masdarlari. O'z o'zini to'ldiruvchi. Bir boralikni ifodalash. Istak mayli. Sifatdoshlar. Sifatdoshlarning 1 bob. Sifatdoshlarning hosila boblari. Aniq va majhul darajadagi sifatdoshlar. Sifatlar. Boshlanish va yaqinlik fe'llari. Sifat darajalari. Sifatning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari. Cheklov, joy va makon nomlari. Ish- qurol nomlari.

Son. Sanoq son. 1-2 sonlari. 3-10 sonlari. 11-99 sonlari, 100-1000gacha bo'lgan sonlarning sanamish bilan munosabatlari. Olmoshi. Tartib sonlar. Taqsim va kasr sonlar. Foizning ifodalanishi. Oy nomlari. o'afta kunlari. Sutka vaqtlarining ifodalanishi.

4 kurs 7 semestr 44 soat.

Noto'g'ri fe'llar haqida umumiy ma'lumot. Ularning masdarlari, aniq va majhul darajadagi sifatdoshlari. o'osila boblari. Ikkilangan fe'llar, o'amzali fe'llar. Bo'sh va noqis fe'llar. Ularning o'ozirgi va o'tgan zamonda tuslanishi. Istisnolikni ifodalash. Hayratlanish va ajablanishni ifodalash. g'asamning ifodalanishi. Tushum kelishigi. Mavhum otlar. Kuchaytirma mayl. Maqtov va tahqirlashning ifodalanishi.

O'qish uchun B.Z. Holidov va A.A Kovolyor, G.Sh. Sharbatovlarning «Arab tili» darslaridan matnlar tanlab olinadi.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar:

1. B.Z. Holidov «Uchebnik arabskogo yazıka» T. 1965.
2. A.A. Kovolev, G.Sh. Sharbatov «Uchebnik arabskogo yazıka». M, 1969.
3. N. Ibrohimov. M. Yusupov. «Arab tili grammatikasi» 1997.
4. H.K. Baranov Arabsko-russkiy slovar'. M, 1957y.

Dasturni tuzuvchi:

Arab filologiyasi kafedrasining o'qituvchisi:

Boltaboev S.S.

FORS TILI GRAMMATIKASIDAN FARKLI VA O'HSHASH JIHATLARI

Ushbu mavzu haqida gap ketganda, albatta arab va fors alifbosi haqida, ulardagi farqlardan boshlasak.

Forslar 7 asrdan boshlab to shu kunga qadar o'z yozuvlarida arab alifbosini ishlatib kelmoqdalar. Arab tili tovushlariga moslashgan va shu tilning tovush sistemasini to'la aks ettira olgan arab alfaviti fors tovushlarini to'la ifodalay olmadi. Bunga sabab, birinchidan, fors tili fonetik sistemasiga tamoman yot bo'lgan bir necha tovush va belgilarning arabchadan kirib kelishi bo'lsa, ikkinchidan, fors tilining hususiyatlarini ifoda etuvchi speçifik tovushlarning arab tili tovushlari sistemasida bo'lmasligi va ularni yozuvda ifodalovchi ma'lum harflarning arab alfavitida yo'qligi bo'ldi.

Arab alfaviti 29 harfdan iborat bo'lib, forslar o'z speçifik tovushlarini ifodalash uchun qo'shimcha ravishda quyidagi to'rt harfni kiritdilar:

P - , Ch -....., J-..... G-

Maqtov va tahqirlanishni ifodalash

Kishining biror shahs yoki predmetga nisbatan yahshi yoki yomon fikrini ifodalovchi bu so'zlarni fe'l deyish to'la ma'noda to'g'ri bo'lmaydi. Chunki ular ish-harakat yoki holatni bildirmaydi. Bu so'zlar jinsda fe'l kabi tuslangani uchun arab tili grammatikasida fe'l deb atash qabul qilingan.

Bu fe'llarga quyidagilar kiradi:

..... -o'zbek tiliga «qanday yahshi» deb tarjima qilinadi.

..... -o'zbek tiliga tiliga «qanday yomon» deb tarjima qilinadi.

Mazkur fe'llarning o'ziga hosligi shundaki, ular zamonga qarab o'zgarmaydi. Ularning quyidagi hususiyatlari mavjud:

Bu fe'llardan keyingi birinchi ot maqtaladigan yoki tahqirlanadigan ot guruhga mansub ma'noni ifodalaydi. Ikkinchi ot maqtaladigan shahs yoki

predmetni bildiradi. Bularning har ikkisi ham bosh kelishikda keladi. Masalan:
..... -Sening otang qanday yahshi.
..... - Uning gapi qanday yomon.

2. Ba'zan birinchi ot noaniq holatda kelishi ham mumkin. Masalan:

.....- U qanday yahshi shoir.
.....- Zaynab qanday yomon hotin.

3. Ba'zan esa ikki otdan biri tushib qolishi ham mumkin. Masalan.

.....- Zayd kanday yahshi
.....- Ichkilik qanday yomon.

4. Maqtalayotgan ob'ekt goho gapdan iborat bo'lishi mumkin. Bunda bu fe'llardan keyin yuklamasi qo'shiladi. Masalan:

..... - Menga aytgan narsang qanday yahshi
.....- Qilayotgan ishlari kanday yomon.

5. - fe'llarida keyin maqtaladigan (tahqirlanadigan) bitta ot keladi halos. Masalan.

.....- Ilm qanday yahshi

Kichraytma ismlar

O'zbek tilida - cha, - choq, - chak afikslari yordamida kichraytma otlar hosil bo'lganidek, arab tilida ham kichraytma otlarning ayrim hosil bo'lish vaznlari mavjud:

1. Uch o'zakli so'zlardan vaznida hosil bo'ladi. Mas: - kuchuk. - kichkina odam.

2. Ikkinchi bo'g'inida cho'ziq unli mavjud otlardan vaznida hosil bo'ldi. Mas: - kichkina hizmatkor.

3. Birinchi bo'g'inida cho'ziq unli mavjud bo'lgan so'zlardan vaznida hosil bo'ladi. Masalan:
.....- kichik chavandoz.

4. Noto'g'ri o'zakli so'zlardan ham shu noto'g'rilikning hususiyatiga mos o'zgarishga uchragan holda hosil bo'ladi. Mas:

..... - eshikcha.
.....- o'g'ilcha.

5. To'rt harfdan iborat bo'lgan otlardan ikkinchi undosh tovushdan keyin «ay» qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan.

.....- masjidcha

6. Agar so'zning ohirida ikkinchi bo'g'indan «a, i, u» cho'ziq unlilaridan biri mavjud bo'lsa, bular cho'ziq «i» ga o'zgarib ketadi. Masalan:

.....- chumchuqcha
.....- kalitcha.

7. Besh undoshli so'zlardan kichraytma so'z hosil qilinganida, ohirgi undosh tushib qoladi.

.....- bulbulcha

.....- behicha.

8. Muannas so'zlardan yasalgan kichraytma otlarda ham muannaslik belgisi tushib kolinadi. Mas:

.....- mushukcha,

9. «.....»ta marbuta harfisiz hosil bo'lgan muannas otlardan kichraytma otlar hosil qilinganda, ohirida harfi qo'shib qo'yiladi:

.....- quyoshcha.

10. - qo'shimchasi bilan tugagan ot va sifatlardan kichraytma otlar hosil qilinganida ham - qo'shimchasi saqlanib qoladi:

.....- Sulaymon yoki kichik Salmon

11. Kichraytma ot shakllari ayrim predloglarda ham qo'llaniladi va shu predloglardagi ma'noning oz yoki qisqa ekanligiga ishora qiladi. Mas:

.....- bir oz oldin

.....- bir oz keyin.

SHAHSI NOMA'LUM GAPLAR

Egasi mavjud bo'lmagan va kesim ifodalagan ish harakatning bajaruvchisi noma'lum bo'lgan gap shahsi noma'lum gap deyiladi. Shahsi noma'lum gap uchun muhimi o'sha ish harakatning bajaruvchisi emas, balki uning bajarilish faktidi.

Arab tilida shahsi noma'lum gapning kesimi o'tgan va hoirgi kelasi zamonda bo'lishi mumkin va u quyidagicha ifodalanadi.

1. Kesim III shahs ko'plik muzakkar fe'l bilan ifodalanadi. Masalan:

.....

Aytadilarki, u arab tilini juda yahshi biladi.

2. Kesim III shahs birlik muzakkar majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalanadi. Masalan:

.....

Fors ko'rfazidagi urush operatsiyalari haqida ko'p gapirildi.

3. Ba'zan bunday gaplarda kesim bo'lib kelgan fe'lning aniq nisbat sifatoshi gapning formal egasi bo'lishi mumkin. Bunda fe'l muzakkar birlik aniq nisbatda bo'ladi. Masalan:

.....- Aytildiki,

.....- So'raldiki.

Bir marotabalikni ifodalash

Ish harakatning bir marta sodir bo'lganligini bildiruvchi so'z bir martalik harakat nomi deyiladi. Bir martalik harakat nomi masdar ohiriga harfini qo'yish bilan hosil bo'ladi. Masalan:

.....- urmoq - masdari - urish, - bir marta urish

Bir martalik harakat nomi boshqa otlar kabi ikkilik va ko'plik sonlariga ega: - bitta kulish, - ikkita kulish, - ko'pgina kulishlar.

Ko'pincha bilan tugagan masdarlardan bir martalik harakat nomi shu masdardan keyin «.....- bir, bitta». moslashgan aniqlovchisini keltirigsh bilan hosil qilinadi. Masalan: - najot topmoq, masdari - - nojot topish, bir marta najot topish.

Ko'plik: To'g'ri va sinq ko'plik.

Arab tilida ko'plik son gap ikkidan ortiq predmet yoki vokea hodisa to'g'risida ketganida ishlatiladi. Ko'plik son o'zining morfologik xususiyatiga ko'ra ikki hil bo'ladi.

1. To'g'ri ko'plik.

2. Sinq ko'plik.

To'g'ri ko'plik.

So'zning ohiriga ma'lum qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil bo'ladigan ko'plik to'g'ri ko'plik deyiladi. To'g'ri ko'plik quyidagicha hosil bo'ladi.

1. Kasb-hunar, mansab, qarindosh urug'chilik munosabatini bildiruvchi muzakkar so'zlardan ohiridagi tanvinni olib tashlab, - qo'shimchasini qo'shish bilan. Masalan.

.....- erkak injenerlar.

..... artikli bilan kelgan so'zlardan ham yuqoridagi qo'shimcha yordamida shakllanadi. Masalan:

.....

2. Kasb-hunar, mansab, qarindosh-urug'chilik munosabatini bildiruvchi muannas so'zlardan qo'shimchasini olib tashlab, qo'shimchasini qo'yish bilan. Masalan:

..... - student qizlar.

.....- o'quvchi qizlar.

3. Bu qo'shimcha yordamida ba'zan erkak kishini bildirmaydigan so'zlardan ham ko'plik hosil bo'ladi. Masalan: yillar.

Bunday ko'plikdagi so'zlar aniq holatda bo'lsa, tanvin qo'shimchasisiz yoziladi.

.....

4. Ayrim jonsiz predmet yoki abstrakttushunchani ifodalovchi so'zlardan ham shu yo'sinda ko'pliq hosil bo'ladi. Masalan.

..... - qo'zg'olonlar.- namoyishlar

5. Shahsni anglatmaydigan ayrim muzakkar so'zlardan ham shu yo'sinda ko'plik hosil qilinadi. Masalan:

.....- e'lonlar.

.....- imtihonlar.

SINIQ KO'PLIK

So'zning o'zagini tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unlilarning o'zgarishi, noo'zak undoshlarning kirishi, umuman, so'z ichki tarkibining o'zgarishi natijasida hosil bo'luvchi ko'plik siniq ko'plik deyiladi. Masalan:

.....- kitoblar,

.....- odamlar.

Siniq ko'plik har bir so'zdan o'ziga hos vaznda hosil buladi. Bu vaznlar anchagshiga bo'lib, ularni ma'lum qoida asosida tartibga solib bo'lmaydi. Birlik sonda bir hil vaznda bo'lgan so'zning ko'pligi har-hil vaznda bo'lishi yoki birlikda har-hil vaznda bo'lgan so'zlarning ko'pligi bir-hil vaznda bo'lishi mumkin. Arab tilida sinq ko'plikning eng ko'p uchraydigan vaznlari quyidagilardir:

1. qalamlar, daryolar.
2. qushlar, yuraklar.
3. odamlar, tuyalar.
4. elchilar, shaharlar.
5. talabalar, yozuvchilar.
6. matohlar, obinonlar.
7. honalar, g'animat paytlar.
8. gazetalar, maktublar.
9. qoidalar, omillar.
10. tillar, dengizlar.
11. halifalar, amirlar.
12. qarindoshlar, avliyolar.
13. o'lkalar, tayoklar.
14. tarjimalar, qishloqlar.
15. manzaralar, yig'inlar.
16. podshohlar, chumchuqlar.
17. kalitlar, bechoralar.

18. bemorlar, o'liklar.

19. hususiyatlar, sovg'alar.

Arab tilida kamroq uchraydigan boshqa vazndagi ko'plik ham uchrayab turadi.

Bu ko'pliklarni ohiridagi qo'shimchasiga qarab, uch guruhga ajratish mumkin:

1. Tanvin qo'shimchasi bilan tugaydigan ko'plik vaznlari.

.....

2. Tanvin qo'shimchasi bilan tugamaydigan ko'plik vaznlari.

.....

3. Alif yoki alif maqsura bilan tugaydigan ko'plik vaznlari .

.....

Bular kelishiklarda turlanganida har-hil qo'shimchalar qabul qiladi. Shuning uchun bularga ko'proq e'tibor berish kerak.

Yuqorida aytganimizdek, siniq ko'plikning shakllanishida ma'lum qonuniyat yo'q. Shu sababli har bir so'z o'zining ko'plik vazni bilan birga o'rganilgan maqsadga muvofiqdir.

Mavzu: Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar.

Ma'lumki gapning egasi har doim bosh kelishikda keladi. Lekin arab tilida shunday yuklamalar ham mavjudki, ularning ta'sirida ega tushum kelishigida kelishga majbur bo'ladi. Bunday yuklamalar oltita.

.....- haqiqatda, haqiqatan. Ko'pincha bu yuklama o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Masalan,..... - (Haqiqatda) uy

kengdir.- (Haqiqatan) hona chiroyli. Agar

..... va shunga o'hshash yuklamalar fe'l kesimli gaplarga qo'shilsa, gapning egasi oldinga o'tadi. Boshqacha aytganda, bu yuklamalardan keyin bevosita gapning egasi keladi. Masalan:

Talabalar bu jumlanı yozdilar.-(Haqiqatda) talabalar bu jumlanı yozdilar.

Agar gapning egasi kishilik olmoshidan iborat bulsa, bu yuklamalardan keyin shu olmoshga mos bo'lgan qo'shilib keluvchi olmosh keladi va u shu yuklamalarga qo'shib yoziladi. Mas...

..... - U (mn) bu maqolani yozdi.

.....- (Haqiqatan) u bu maqolani yozdi.

..... yuklamasi ishtirok etganida ot kesimli gapda ham fe'l kesimli gapda ham yuklamasi qushilishi mumkin va u tarjima qilinmaydi. Mas:

..... - (Haqiqatda) Olloh mehribon va rahmlidir.
.....-(Haqiqatda) talabalar bu jumlanı yozdilar.
..... tipidagi gaplarda ham qo'shilganida gaplarning egasi
tushum kelishigida kelaveradi. Mas., - Devorning ham qulog'i
bor. (maqol);

(So'zma-so'z; O'qiqatda devorlarning quloqlari bor).

Agar yuklamasiga yuklamasi qo'shib kelsa, ma'noda o'zgarish
bo'lmaydi, lekin gapning egasi bosh kelishikda keladi. Mas.,

..... Kelajak shirin bo'lsa, ehtimol, aslida
hozirgi payt eng shirin.

..... - go'yo, go'yoki, ...dek. Bu yuklama ham yuklamasi kabi morfologik
hususiyatlarga ega. Mas.,

..... Zaynab farishta kabidir.

.....Go'yo otang qahramondir.

..... -ki. Bu yuklama ko'pincha shahsi noma'lum gaplarda yoki
to'ldiruvchi ergash gapli qushma gaplarda ergash gapni bosh gapga qushuvchi
ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasini bajaradi. Mas..

.....
-Ma'lumki, Muhammad aqlli yigitdir yoki Muhammadning aqlli yigit ekanligi
ma'lum.

..... - lekin, biroq. Bu yuklama zidlovchi bog'lovchi vazifasida
keladi. Mas..,

.....
- Barchamiz hayvvvonot bog'iga bordik, lekin Mahmud bormadi.

..... - ehtimol, shoyad. Bu yuklama gumonni, amalga oshishi ham,
oshmasligi ham mumkin bo'lgan tilakni bildiradi. Mas..,

..... Ehtimol, uning (mz) akasi tuuushunar.

..... - koshki. Bu yuklama amalga oshishi mumkin bo'lmagan tilakni
bildiradi. Mas...

.....
- Oh, koshki edi men tuproqqa aylansam.

Mavzu: Kuchaytirma mayli. Shahsi noma'lum gaplar.
Kuchaytirma mayli ish-harakatning kelgusida albatta amalga oshishini bildiradi.
U fe'ling istak mayli shaklidan quyidagi ikki usul bilan hosil bo'ladi:
1. Fe'l ohiriga tashdidli harfini qo'shish bilan. Bunda fe'l quyidagi tarzda
tuslanadi:

2. Istak maylidagi fe'l ohiriga sukunli harfini qo'shish bilan. Bunday fe'l
quyidagi tarzda tuslanadi

Kuchaytiruv mayli bo'lishli va inkor ma'nodagi buyruq mayli bilan ham ishlatiladi. Bunda buyruq mayli sukun bilan tugagan bo'lsa, bu sukun fathaga o'zgaradi Masalan.

..... - Sen albatta o'tir

.....- Bu gapga hech qachon quloq solmanglar.

Shahsi noma'lum gaplar

Egasi mavjud bo'lmagan va kesim ifodalagan ish harkatning bajaruvchisi noma'lum bo'lgan gap shahsi noma'lum gap deyiladi. Shahsi noma'lum gap uchun muhimi usha ish harakatning bajaruvchisi emas, balki uning bajarilish faktidir.

Arab tilida shahsi noma'lum gapning kesimi o'tgan va hozirgi kelasi zamonda bo'lishi mumkin va u quyidagicha ifodalanadi:

1. Kesim 3 shahs ko'plik muzakkar fe'l bilan ifodalanadi. Masalan:

.....

Aytadilarki, u arab tilini juda yahshi biladi.

2. Kesim 3 shahs birlik muzakkar majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalanadi. Masalan:

..... Bu maqolada yaqin Sharqdagi so'nggi voqealar haqida gapiriladi.

3. Ba'zan bunday gaplarda kesim bo'lib kelgan fe'lning aniq nisbat sifatdoshi gapning formal egasi bo'lishi mumkin. Bunda fe'l muzakkr birlik aniq nisbatda bo'ladi. Masalan.

.....- Aytildiki, ...

.....- So'raldiki, ...

MAVZU:

Arab mamlakatlari haqida ma'lumot

Davlat tili arab tili bo'lgan. mamlakatlarni arab mamlakatlari deyiladi. Hozirgi dunyo haritasida 20 dan ortiq arab mamlakatlari bo'lib, bu

mamlakatlarning matbuotda, radio, TV va davlatlararo muomala tili arab tilidir. Bu mamlakatlar 2 ta qit'ada, Osiyo va Afrika qit'alarida joylashgan. Ular quyidagilardir.

Mamlakatlar	I. Osiyo Poytahti
1. Bahrayn.	Manama.
2. Birlashgan Arab Amirliklari	Abu Dabi.
3. Iordaniya	Ummon.
4. Qatar	Doha.
5. Livan	Bayrut
6. Iroq	Bog'dod
7. Saudiya Arabistoni	Ar-Riyod
8. Suriya	Damashq
9. Ummon	Maskat
10. Yaman Arab Respublikasi	Sanaa
11. Quvayt	Al-Quvayt.

ب. Afrika

12. Jazoir	Jazoir.
13. Jibuti	Jibuti.
14. Komor Orollari	Maroni.
15. Liviya	Tripoli.
16. Mavritaniya	Nuakshot.
17. Marokash	Rabot.
18. Misr	Qohira.
19. Somali	Magadisho
20. Sudan	Hartum
21. Tunis	Tunis
22. Falastin	Quddus

MAVZU: Tushum kelishigi

Reja:

1. Tushum kelishigi haqida tushuncha.

2. Tushum kelishigining yasalishi.

3. Tushum kelishiining turlari.

Tushum kelishigining gapdagi vazifalari.

Tushum kelishigiismning fe'lga tobeligini ifodalash uchun ishlatiladi. Shunga ko'ra tushum kelishigidagi so'z o'zi bog'lik bo'lgan gap bo'lagi - fe'l kesim bilan ma'no tomondan mustahkam bog'langan bo'ladi. Tushum kelishigi bajargan vazifalar turli tuman bo'lib unga vositasiz to'ldiruvchini ifodalashdan tortib, to fe'l mazmuniga aniqlik kiritish, konkretlashtirish hamda chegaraalovchi, tushuntiruvchi turli to'ldiruvchilarni gapda ifodalash kabilar kiradi.

1. O'ar bir o'timli va o'timsiz fe'l bilan birga uning tushum kelishigida turgan harakat nomi kelishi mumkin. Arab grammatistlari tushum kelishigida turuvchi harakat nomini bir martalikni ifodalovchi ismlarni hamda holni deb atashadi va u quyidagi holatda ishlatiladi.

1. Fe'l ma'nosini kuchaytirish va ta'kidlash uchun - Masalan:
..... - u uni zarb bilan urdi.
..... - u piyoda yurib ketdi.

2. Berilgan harakatni ajralib turuvchi belgisini ajratish va ifodalash uchun ishlatiladi, shu bilan birga harakat nomi yuqoridagi belgini ifodalovchi sifat - aniqllovchiga ega bo'ladi. Masalan:

..... - Men uni kuch bilan urdim.

.....- Men uzoq yurdim.

Sifat o'rniga harakat nomi quyidagilar bilan aniqlanishi mumkin.

a) Qaratqich kelishigidagi ismlar bilan. Masalan:

..... - U qo'rqqoqdek qo'rqdi.

b) Alohida jumla bilan. Masalan:

..... - Men uni azob beradigan kuch bilan urdim.

v) O'arakat nomi o'rniga harakat usuli ishlatiladi.

.....- U huddi kasaldek o'tirdi.

..... - U kerilib yurdi.

3. Bir necha harakatni sanab ko'rsatishda. Bunda harakat nomi o'rnida bir martalikni ko'rsatuvchi ism ishlatiladi. Masalan:

.....
Men uni bir marta, u esa meni ikki marta urdi.

II. Fe'l harakati to'g'ridan-to'g'ri o'tadigan ob'ekt ham tushum kelishigida turadi. Masalan:

..... - Hurmoni edi.

.....- Suv (ni) ichdim

..... - U (qandaydir) kishini uchratdi.

O'arakat yo'nalgan ob'ektni ko'rsatuvchi, tushum kelishigida turgan ism sositasiz to'ldiruvchi hisoblanadi.

Arab tilida fe'llar ikki turga bo'linadi bular o'timli fe'l va o'timsiz fe'llaridir. O'timli fe'lar ish harakat yo'nalgan ob'ektni tushum kelishigida turishini talab qiladi. Predloglar bilan birga ishlatiladigan o'timli fe'llar ham borki ularni arab grammatistlari

..... deb ataydilar. Bunday o'timli fe'llardan keyin kelaetgan to'ldiruvchi endi vositasiz hisoblanmaydi.

Tushum kelishigi ish harakat vaqtini va joyni ifodalashda to'g'rirog'i o'rin va payt hollarni ifodalashda ham ishlatiladi:

(.....)

1. Umumiy vaqtni ifodalashda. Masalan: - kunduzgi,- kechqurun;
2. voqea-hodisaning aniqlangan vaqtini ko'rsatishda. Masalan: - Men juma kuni keldim.
3. ish-harakatning davom etish muddatini ifodalashda. Masalan: - Men 3 kun yurdim. - 2 kun hukmronlik qildi.
4. Biror joyga nisbatan umumiy yo'nalish. Masalan: - o'ngga, - chapga, - ichkarida, - tashqarida.
5. Masofani ifodalashda. Masalan: - u 4 mil masofani bosib o'tdi.

IV. Maqsad va sabab. Ish harakat maqsadini va sababini bildiruvchi ismlar (.....) ham tushum kelishigida turadi. Masalan:

..... - uni hurmat qilganim uchun o'rnimdan turdim.

..... - u sendan qo'rqqanidan qochdi.

- ج. Ish- harakatni ob'ekt yoki sub'ekt bilan birgalikda bajaruvchi. Shahs yoki predmetni bildiruvchi ism yuklamasidan keyin tushum kelishishigida turadi. Bunda tushum kelishigi bog'lovchisi esa «.....» deb ataladi. Masalan: - Men seni akang bilan birga safar qildim.
- ح. Noaniq holdagi sifatdashning aniq darajasi yoki holatni ifodalovchi harakat nomi tushum kelishigida turadi. Harakat usuli bilan ifodalangan tushum kelishigida turgan ism a) sub'ektga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan - u otga minib keldi. - U piyoda ketdi. b) Ob'ektga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan: - Men uni ko'chada, yig'layotgan holda uchratdim.
- خ. Cheklash. Arab tilida gapning kesimini aniqlab cheklab kelayotgan ism - ham noaniq holatda, tushum kelishigida turadi. Masalan: - chiroyli yuzli, - u mendan yosh jihatdan kichik. - yana o'lchash mumkin bo'lgan narsalarni o'lchovi ko'rsatganidan keyin ham

ishlatiladi. Masalan:- 2 rata yog' - men 2 lokt movut sotib oldim. 11 dan - 99 gacha bo'lgan sanoq sonlaridan keyin kelayotgan sanalmish tushum kelishigida turadi. Masalan: - 11 ta qismi. -so'roq olmoshi keyingi ism ham noaniq holatda tushum kelishigida turadi.

۵. - bo'lmoq,- bo'lib qolmoq, - yo'q,
..... -bo'lmoq, - kabi,
bo'lmoq va bo'lib qolmoq fe'llar ismiy gapning tarkibida kelganida qo'shma kesimning fe'l kesim bo'lib keladi. va qo'shma kesimning ot qismini tushum kelishigida turishini talab qiladi. Masalan: - Zayd tolib bo'lgan, - u kasal bo'lib qoldi.
۶. - darhaqiqat, haqiqatdan, - chto, - agar, - lekin,-balki, - o, qaniydi, kabi yuklamalar borki, ular o'zidan keyingi ismga to'g'rirog'i egaga ta'sir qilib uni tushum kelishigida turishini talab qiladi. Masalan:- Darhaqiqat Zayd ketayapti. - Lekin o'qituvchi dedi. - balki akang kelar.
۷. Inkor yuklamasidan keyin ismlar quyidagi holatlarda tushum kelishigida turadi:

1) inkor yuklamasi ismiy jumlaning egasidan oldin tursa, ega noaniq holatda tanvinsiz tushum kelishigida turadi. Masalan: - uyda hech kim yo'q.- abadiy hech narsa yo'q. Agar inkor qilinayotgan ism bir nechta bo'lib inkor yuklamasi ularning har birining oldida alohida inkor qilinayotgan ismlar yo tushum kelishigida yo bosh kelishikda yoki biri tushmda - boshqasi bosh kelishikda turishi mumkin. Masalan:

.....
..... - Uyda ayol kishi ham erkak kishi ham yo'q.

2) Ismiy jumlaning inkor etuvchi va yuklamalari fe'l bog'lamasining hozirgi - kelasi zamon inkor ma'nosiga to'g'ri kelsa ismiy jumlaning kesimi tushum kelishigida turadi. Masalan
..... Zayd ishtirok etmayapti.
..... Hech qaysi zamon qaytmaydi.

Bulardan tashqari quyidagi holatlarda ismlar tushum kelishigida turadi:

1. Ajablanish.zavqlanishni ifodalovchi qolipidan keyin.
Masalan:

..... Zayd qanday sahovatli.

2. Istisno va mustasno yuklamalaridan keyin.

3. murojaat yuklamasidan keyin, izofa birikmasidagi ism kelsa.
Masalan:

..... Ey Abdullo.

TAYANCH SUZ VA IBORALAR

1. Utimli va o'timsiz fe'l.
2. Harakat nomi.
3. Harakat usuli.
- 4.
- 5.
- 6.
- 7.
- 8.
- 9.
- 10.
- 11.
- 12.
- 13.
- 14.
- 15.

SAVOLLAR

1. Tushum kelishigi nima uchun ishlatiladi.
2. Tushum kelishigidagi suz gapning qanday bulagi bilan ma'no tomonidan bog'lanadi.
3. Arab nahvchilari tushum kelishigida turgan harakat nomini, holni nima deb ataydilar.
4. Tushum kelishigining qanday turlari bor.
5. Kanday yuklamalardan keyin ism tushum kelishigida turadi.
6. Tushum kelishigi gapda kanday vazifalarni bajaradi.

